



**HODISA JOYINI KO'ZDAN KECHIRISHDA
TRASOLOGIK IZLARNING AHAMIYATI**

Habibulayev Abrorbek Bahromjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi 3-bosqich kursanti

I.Y. Haydarov

Ilmiy rahbar - O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi Kriminalistik

ekspertizalar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan, sodir etilgan jinoyatlarni tez, to'liq va o'z vaqtida ochilishini ta'minlashda eng muhim bo'lgan hodisa joyini ko'zdan kechirish tergov harakatining umumiy kriminalistik jihatlari va unda trasologik izlarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: Hodisa joyi, jinoyat, izlar, trasologiya, ashyoviy dalil, tezkor-tergov guruhi



KIRISH

Jamiyat ijtimoiy hayotida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, hisoblanuvchi jinoyatchilika qarshi kurashishni tashkil etish davlat siyosatini muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, jinoyatchilik, uni sabablari va sodir etilishiga shart sahroit yaratuvchi muhitni ilmiy jihatdan bilish, har qanday fosh qilish birinchi galda dalillarga tayanishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksining 16-bobida ko'zdan kechirishni protsessual asoslari bayon etilgan bo'lib, jinoyat izlari ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan joy, murda, hayvonlar, ma'lum bir hudud, binolar, narsalar va xujjatlar ko'zdan kechirilishi hamda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi, yoki uni izlari borligi haqida ma'lumot bo'lgan taqdirda o'tkazilishi ko'rsatilgan.

Tergov va odil sudlovni amalga oshirishning muhim sharti o'tkazilgan barcha protsessual harakatlar qonuniyligini ta'minlamoqlikni, hodisa sodir bo'lgan joyda surishtiruvchi, tergovchi va tegishli mutaxassislar qonun talablarini aniq bajarishlarini, shaxsning sha'ni va qadr qimmatini hurmat qilish, fuqarolarni huquq va erkinliklarini muhofaza qilish talablari asosida bajarilishligini talab etadi.

Dalillarni qayd etish jinoyat protsessual kodeksining 91-moddasiga ko'ra bayonnoma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, jadvallar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo'llanishi mumkin.

Hodisa bo'lgan joyni ko'zdan kechirish asosida ashyoviy dalillarni to'plash kelgusi tergov ishlarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Kriminalistika nuqtai nazaridan keng ma'noda olinganda jinoyat izlari tushunchasi jinoyatga ta'lluqli bo'lgan barcha ashyoviy dalillarni o'z ichiga oladi.



Ma'lumki, sodir etilgan jinoyatlarni tez va to'liq, o'z vaqtida ochishda o'tkaziladigan dastlabki va eng muhim tergov harakatlaridan biri bu hodisa joyini ko'zdan kechirish tergov harakatidir. Ko'zdan kechirish – hodisa sodir bo'lgan joyni tezkor-tergov guruhi a'zolari tomonidan tekshirilib, jinoyatga tegishli bo'lgan moddiy ashyolar, predmetlar, izlarni, jinoyat qurolini, jinoyatni sodir etishda gumonlangan shaxsga tegishli ma'lumotlarni olishdan iboratdir.

Ko'zdan kechirish mustaqil tergov harakati bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 135-140-moddalari bilan tartibga solingandir. Mazkur tergov harakati ko'p turdagi jinoyatlarni tergov qilishda dastlabki va kechiktirib bo'lmaydigan, jinoyatni ochishda muhim bo'lgan dalillarni topishni ta'minlaydigan harakatdir. Ushbu tergov harakatining maqsad – vazifasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 135-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, sodir bo'lgan hodisa joyi bilan tanishib chiqib, qanday hodisa yuz berganligini, hodisaning xolatlari yuzasidan dalillarni, jinoiy hodisaning oqibatini, kim yoki kimlar sodir qilganliklarini aniqlashdan iboratdir.

Hodisa joyi deganda jinoyat sodir bo'lgan joyni, jinoyatga tegishli bo'lgan narsalarni (izlar, qurol sifatidai shlatilgan predmetlarni ashyoviy dalillarni topilgan joylarini, jinoyatda gumonlanuvchi shaxsni ushlagan joyi va boshqa ma'lumotlar olingan joylarni tushuniladi. Jinoiy hodisa sodir bo'lgan joyiga nisbatan quyidagi turlarini keltirish mumkin: odamlar yashaydigan bino, inshoot xonalari, xo'jalik ishlariga mo'ljallangan va yordamchi xonalar, davlat yoki jamoa tashkilotining xizmat xonalari (ofislar) va ochiq joylardagi yer maydonlari va h.k.

Jinoyat sodir etilagn joyda, albatta jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan obyektiv yoki subyektiv izlar qoladi. Subyektiv izlarga jinoiy hodisadan xabar topgan shohidlar, guvohlarni misol qilib aytishimiz mumkin. Obyektiv izlarga bo'lsa misol qilib hodisa sodir



bo'lgan joyda qolgan qon izlari, soch tolalari, jinoyatchiga tegishli buyumlar, barmoq izlari, oyoq izlari jarohatlar va h.k.

Trasologik izlar yuqorida sanab o'tgan izlar orasida juda katta ahamiyatga ega. Trasologiya "la tras"- iz, grekcha "logos"- ta'limot so'zlarining birikuvidan hosil bo'lib, izlar haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Trasologiya kriminalistikaning bir sohasi bo'lib iz hosil bo'lish jarayonining nazariy asoslari, ularni qoldirgan obyektlarning tashqi tuzulishi, izlarning hosil bo'lish mexanizm, izlarni topish, hisobga olish va olib qo'yish usul va vositalari, shuningdek jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida izlar tadqiqotining umumiy va xususiy usullarini o'z ichiga oladi.

Iz qoldiradigan obyektlarning turiga qarab, izlarning to'rtta asosiy guruhi ajratiladi:

1. Odam izlari (gomeoskopiya).
2. Hayvon izlari.
3. Qurol, asbob va ishlab chiqarish mexanizmlarining izlari.
4. Transport vositalarining izlari.

1. Odam izlari (gomeoskopiya):

- ✓ qo'l izlari (papillyar naqshlar, daktiloskopiya);
- ✓ oyoq izlari – yalang oyoq izlari, paypoqli oyoq izlari, poyafzal izlari;
- ✓ tish izlari;
- ✓ tirnoq izlari;



✓ papillary chiziqlarga ega bo'lmagan tana a'zolari (lab, quloq, peshona, burun qirralari va h.k.)ning izlari;

✓ kiyim-kechak, ko'lqop izlari;

✓ qon izlari (ularning hosil bo'lish shakllari va mexanizmlarini kriminalistik tadqiq etish).

2. Hayvon izlari:

✓ hayvon oyoqlari (panja, taqa) izlari;

✓ tamg'a (belgi)ning ko'rinishi.

3. Qurol, asbob va ishlab chiqarish mexanizmlarining izlari (mexanoskopiya):

✓ buzish qurollarining izlari;

✓ qulf va qulflash moslamalaridagi izlar;

✓ nazorat plombalari va yopuvchi-plombalovchi qurilmalardagi izlar;

✓ mahsulotlardagi ishlab chiqarish mexanizmlarining izlari.

4. Transport vositalarining izlari:

✓ relssiz transport vositalarining g'ildirak izlari;

✓ sudraluvchi zanjirsimon (g'ildirak) izlari;

✓ chang'i va chana izlari;

✓ transport vositalaridagi bo'rtib turuvchi detallarining izlari.

Iz qoldiruvchi obyektlarga – poyafzal, transport vositasining g'ildiragi, inson tishlari, buzish qurollari, ya'ni iz qabul qiluvchi bilan



o‘zaro ta’sirlashish natijasida o‘z aksini qoldirish mexanizmiga ega bo‘lgan boshqa buyum va narsalarni kiritish mumkin.

Iz qabul qiluvchi obyektlarga yer, asfalt, deraza oynasi, eshiklar, qulf, plombalar, oziq ovqat mahsulotlari kabi iz qoldiruvchi obyekt bilan ta’sirlashish natijasida izni o‘zida aks ettiruvchi narsa buyumlarni misol qilish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan izlar orqali hodisa sodir bo‘lgan joyda jinoyatchining harakatlarini taxmin qilishimiz mumkin, misol uchun hodisa joyidagi shubhali poyabzal izidan, biz jinoyatchining taxminiy yoshi, bo‘yi, qadam tashlashdagi nuqsonlari va jinsini aniqlashimiz mumkin. Harakatlanish tezligi to‘g‘risida qadamlarning uzunligiga qarab fikr yuritish mumkin. Yurganda erkaklar qadamining uzunligi o‘rtacha 70 – 85 sm ni, ayollarda esa 50 – 65 sm ni tashkil etadi.

Odamning oyog‘i qoldirgan yagona (yakka) izlarga qarab, odamning taxminiy bo‘yini hisoblab chiqish mumkin (baland – 174 sm dan yuqori, o‘rta 160 – 173 sm va past – 160 sm gacha). Oyoq kaftining uzunligi erkaklar bo‘yi kattaligining 15,8 % ni; ayollar bo‘yining 15,5 % ni tashkil etadi. Poyafzal va oyoq izlarining uzunligi orqali shaxs oyoq kaftining uzunligi, shuningdek uning kafti va tovon kengligi o‘rtasida korrelatsion bog‘liqlikligi mavjudligi aniqlanadi. Bu oyoq kafti yoki tovon kengligini aks ettirgan izga qarab, odam bo‘yi to‘g‘risida taxminiy xulosa qilish imkonini beradi. Oyoq kaftining kengligi 18 marta, tovon kengligi esa 27 marta har qanday jinsdagi odam bo‘yi kattaligidan kamdir. Bu kabi ma’lumotlarni olishda quyidagi taxminiy jadvaldan foydalansa bo‘ladi:

Poyabzal izi uzunligi orqali odamning taxminiy bo‘yini aniqlash jadvali



Poyabzal izining uzunligi, sm	Topilgan uzunlik quyidagi raqamlarga ko'paytirilishi kerak:
21,9 sm gacha	7,17
22,0– 22,9	6,84
23,0 – 25,9	6,61
24, – 24,9	6,55
25,0 – 25,9	6,40
26 – 26, 9	6,32
27, – 27,9	6,25

Namuna: topilgan poyafzal izining uzunligi 27,5 sm.
 $27,5 \text{ sm} \times 6,25 = 171,875$. Jadvalga asosan, bu 172 sm ga teng.

Yuqorida nazarda tutilgan jinoyatga aloqador deb topilgan barcha jinoyat quroli, moddiy ashyolar, predmet va narsa-buyumlar, shu jumladan trasologik izlar ham protsessual talablarga rioya qilingan holda qadoqlanadi va tergovchining bayonnomasida ko'rsatladi hamda kelgusida ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishida isbot qilishda foydalaniladi. Bu bilan trasologik izlar jinoyatlarni tez va to'la, o'z vaqtida ochishda, jinoyatlarni issiq izida fosh etishda va ularga chek qo'yishda o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/111460>.
2. Kriminalistika taktikasi. O'quv qo'llanma "Yangi asr avlodi" T.2000-y.
3. Trasologik ekspertiza: Darslik / S.A. Nurumbetova, T.B. Mamatqulov, X.A.Turabbayev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022.
4. Kriminalistika. Darslik "Adolat" nashriyoti. 1-jild. Prof. F.A.Abdumajidov, dos.A.norboyev, dos.R.alimova va boshqalar. Toshkent 2003 y